

## MOL BOQISHNING YAYLOV O‘SIMLIKLARI BIOXILMA-XILLIGIGA TA’SIRI

**Qodirova Surayyo Qarshiboevna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

E-pochta: [surayyoq75@gmail.com](mailto:surayyoq75@gmail.com)

**Annotatsiya.** Chorva mollarini zo‘riqtirib boqish va yaylovlardan tartibsiz foydalanish oqibatida inqirozga uchragan yantoqzorlarni, cho‘l va yarim cho‘l chorvasini, yem-hashak bazasini tubdan yaxshilash shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ishning maqsadi kam hosilli siyraklashgan tabiiy yantoqzor jamoasini hosildor yem-hashak o‘simliklarini ekish usuli bilan yaxshilash va uning hosildorligini 5-10 marotaba oshirish texnologiyasini yaratishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Agrofitotsenoz, yantoq, Alhagi, inqiroz, bioxilma-xillik, cho‘l, antropogen, gemikserofit, adaptatsiya, texnogen.

### **Kirish**

Chorva mollari uchun oziq bo‘ladigan tabiiy o‘simliklar qoplami bor yer-yaylov deyiladi. Yaylov umum millat boyligi va davlat tomonidan himoyalangani.

Yaylovlar cho‘ldagi, tog‘ oldidagi, tog‘dagi va tekislikdagi, suv bilan ta‘minlangan va ta‘minlanmagan yaylovlarga ajraladi.

Insoniyat ongli yashash darajasiga yetibdiki tabiiy yaylovlardan o‘zini ehtiyoji uchun samarali foydalanib kelgan. Yaylovlar hanuzgacha sarf-harajatsiz, iqtisodiy samara beruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Yaylov o‘simliklari juda uzoq bo‘lgan tarixiy rivojlanishga (evolyutsion filogenezga) ega. Yaylov o‘simliklari asosan efemer-efemeroid, ko‘p yillik, o‘tlar va qisman chala buta va butalardan iborat.

Yaylovlar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yurtimizda ekologik holatni asrashda, oziq-ovqat xavsizligini ta‘minlashda, chorvachilikni

rivojlantirish hamda aholini turmush darajasini yaxshilashda, asosiy iqtisodiy, samarali tabiiy xazina manbalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning boshlarida chorva mollarining soni ancha kamaygan bo'lsa, keyingi yillarda chorva mollari soni yil sayin nisbatan ko'payib kelmoqda. 2025 yilning ma'lumoti bo'yicha chorva mollarining soni oldingi yilga nisbatan ikki barobar ko'payib soni 40 mln. boshga yetgan. Ya'ni chorva mollarining soni, ular boqiladigan yaylov resurslaridan sezilarli darajada oshib, 34 mln. qo'y-echkiga 21 mln. yaylov to'g'ri kelmoqda. Natijada tabiiy yaylovlarda o'simliklarning biologik xilma-xilligining tanazzuli yuzaga kelmoqda. Yaylovlarning hosildorligi sezilarli darajada pasaymoqda. Yaylovlardagi o'simlik jamoasi salbiy tomonga o'zgarib bormoqda va tabiiy suksessiya natijasida katta maydonlar past qiymatli ozuqa bob o'simliklar yoki chorva mollari tomonidan iste'mol qilinmaydigan o'simliklar bilan almashmoqda.

Iqlim o'zgarishining ta'siri birinchi navbatda cho'llanishga moyilligi yuqori bo'lgan cho'l va yarim cho'l yaylovlarida sezilmoqda. Iqlim o'zgarishi yaylovlarning suv balansiga ta'sir qilmoqda. Yillik yog'ingarchilik miqdori yiliga 5-10 % ga kamayib bormoqda. Qurg'oqchil keladigan yillarning takrorlanishi tezlashmoqda, natijada yaylovlar ekotizimi tanazzulga uchrab tuproq yuzasi ochilib qolmoqda. Ochilgan yaylovlar tuproqning qurib qolishi natijasida undan chiqayotgan chang va qum zarralari atmosferani ifloslantirmoqda. Shunday qilib, O'zbekistonda havoning ilgari kuzatilmagan changli-to'zonli iqlim yuzaga kelishi asosan yaylov tuproqlari sababli. Shunday ekan yashil makon loyihasining faqatgina shahar va tumanlarda emas balkim, yuqoridan ma'lumki ekologik barqarorlikni saqlashda, yaxshilashda o'z o'rniga ega bo'lgan yaylovlarga ham e'tibor kuchaytirilishi kerak.

Har bir yaylov ekotizimdagi tur tarixiy rivojlanish jarayonida ozuqa zanjiri bilan bog'lab kelgan, birining yo'qolishi boshqa turlarning yo'qolishiga yo'l ochib beradi va tizim balansini buzadi. Shuning uchun har bir turning yo'qolishini ekologik muammo deb tushunish kerak.

Achinarlisi shuki, tabiiy yaylovlarning hosildorligi sezilarli holatda pasaymoqda va chorva mollarini oʻtlatib boqish uchun mutlaqo yaroqsiz holatga kelib qolmoqda. Bularning hammasining sababi, yaylovlarda chorva mollarini zoʻriqtirib boqish, yaylov tabiiy resurslaridan tartibsiz nooqilona foydalanish hisoblanadi.

Koʻpchilik davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligi kuzatilayotgan bir davrda bu holat respublikamizga ham xavf solmoqda. 50 % dan ortigʻi turli darajada inqirozga uchragan va bir necha mln. gektar yaylovlarning tabiiy ravishda yem-xashak hosil qilish salohiyati pasayib, yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Aslida yaylovlarimiz ozuqaviy qiymati yuqori, serhosil koʻp yillik boʻlgan oʻsimlik turlariga *Artemisia diffusa*,

*A.sogdiana*,

*A.turanica*,

*A.ferganensia*,

*Poa bulbosa*,

*Climacoptera lanatae*,

*Alhagi pseudalhagi*,

*Carex pochystylis*,

*C. Physaides*,

*Eremopyrum bionapartis* lar shular jumlasidan. Lekin yuqorida keltirilgandek bu oʻsimliklarning oʻrnini quyidagi

*Acroptilon repens*, *cerato cephalus orthoceras*,

*Ahabasis aphylla*,

*Artemisia annua*,

Peganum harmala,

Psoralea drusum,

Convolvulus subhirstus kabilardir.

Oxirgi yillarda tabiiy yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga bag'ishlangan bir nechta farmon va qonunlar joriy qilingan.

Shulardan kelib chiqib respublikamizning tabiiy yaylovlar resurslardan foydalanishda o'zining amaliy ahamiyati hozircha yo'qotmagan, ajdodlarimiz sinovidan o'tgan va shu kunda bu borada olimlarimiz tomonidan ilmiy asoslangan normativ va tavsiyanomalardan foydalansa yaylovlar ham chorva mollari ham ziyon ko'rmaydi. Boqiladigan chorva mollari soni yaylovning hosildorligidan kelib chiqqan holda hududning ekotizimiga ziyon keltirmaydigan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham hududning hosildorligi aniqlanishi kerak.

Ko'pchilik davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligi kuzatilayotgan bir davrda bu holat respublikamizga ham xavf solmoqda. 50 % dan ortig'i turli darajada inqirozga uchragan va bir necha mln. gektar yaylovlarning tabiiy ravishda yem-xashak hosil qilish salohiyati pasayib, yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Qo'ylar uchastka zagonlarida belgilangan muayyan uchastkalarda o'tlar yaxshi o'sib yetiladi va ulardan foydalanish yaxshilanadi. Bu tartibda chorva mollarini boqish shuvoq-efemer o'tlari ko'p bo'lgan joylarda ijobiy natija hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining yer fondi (2020-yil, 1-yanvar holati) Toshkent, yer GEODEZ KADASTR davlat qo'mitasi, 2020.
2. Madumarov T.A. O'simliklar bioxilma-xilligini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish davr talabi // "O'simliklarning hayotiy strategiyalari va reproduksiya jarayoni" mavzusidagi respublika ilmiy konfrensiyasi materiallari to'plami. – Guliston, 2016.

3. O‘zbekiston Respublikasi biologik xilma-xilligini saqlash milliy strategiya va harakatlar rejasi. - T., 1998.
4. Mavlanov X., Qodirova S. Yantoqning biologiyasi va xo‘jalikdagi ahamiyati // Xorazm Ma‘mun akademasi axborotnomasi. 2020-yil, 9-son.